

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NUTQNI
RIVOJLANTIRUVCHI QONUNIYATLAR TAHLILI

Roziqova Ra'no Rustamovna

*Buxoro davlat Pedagogika instituti**Talim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)**2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish savodxonligi darsligi milliy dastur asosida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga oid mashqlar tahlil qilingan va takliflar kiritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik mahorat, metod, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi, nutq, kompetensiya, anglash, o'qish va tushunish.*

Bugungi zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha vaqt, ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa muddatda nazariy bilimlar bilan o'quvchilarni qurollantirish, ularda ma'lum vaziyat yoki faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ularning faoliyatini nazorat qilish, o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalarning darajasini baholash zarur bo'ladi. Bu vazifalar esa o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni hamda ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni talab etadi. Har bir pedagog talim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, salohiyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. O'qituvchilar darsni qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etishidan qat'iy nazar bu innovatsion texnologiyalarning maqsadi doim barcha uchun bir xildir. Va bu usullar yordamida dars mashg'ulotlarni tashkil etganda quyidagi maqsadlarga erishilishini har bir pedagog quyidagilarga erishishi zarur:

- ✓ Pedagogik faoliyat (ta'lim va tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirilishi;
- ✓ O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirilishi;
- ✓ O'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- ✓ O'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- ✓ An'anaviy ta'lim usullaridan ko'ra noan'anaviy ta'lim usullari samaraliroq ekanligini natijada namoyon eta olishi;
- ✓ O'quvchilarning nutqiy va linvistik kompetensiyalarini shakllantira olishi yoki rivojlantirishi;
- ✓ O'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- ✓ Pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarning ustuvorligiga erishishni kafolatlashi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan

yuksak pedagogik mahoratni va ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab qiladi. Har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, qobiliyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar bu ta'lim metodlari:

- pedagogik faoliyat (ta'lim- tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin, va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarini ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Noan'anaviy (interfaol) ta'lim metodlaridan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlantirish mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi innovatsion texnologiyalarni qo'llash borasidagi katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar intefaol yoki noan'anaviy metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyo qarashini o'stirish ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Ta'limning yangi mazmuni o'quvchilarning har tomonlama kamol topishiga, ularni jamiyatda faol bo'lishiga qaratilgandir. Ayniqsa, bolalarni xat-savodga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish orqali nutqlarini rivojlantirish va buning natijasida boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishga erishish lozim.

Xat-savod o'rgatish ta'limning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda o'quvchilarga to'g'ri o'qish, chiroyli yozish hamda o'qiganlarini so'zlab berish o'rgatiladi. Nutqni gaplarga, gapni so'zlarga, so'zni bo'g'inlarga ajratish tovushlarni eshitib va talaffuz qilib bir-biridan farqlash, so'zda tovushlarning birin-ketinligiga e'tibor berishni ham bilib olishlari ta'minlanadi.

Bolalarning nutqini o'stirishda kesma harflar bilan ishlashga o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalar bo'g'inlar tuzishga tez o'rganadilar. Ochiq va yopiq bo'inlarni turli ko'rinishdan tuzilgan gaplar tuzishni ham mashq qiladilar. Kichik matnlarni ovoz chiqarib bo'g'inlab, ongli, to'g'ri va ravon o'qishni o'rganadilar. Bu davrda bolalarni sidirg'a ya'ni bo'g'inlab o'qishlariga alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi.

Bola avval ichida bo'g'inlab o'qish, so'ng ovoz chiqarib so'zni butunicha aytadi. O'qish yozuv bilan uzviy bo'lab olib boriladi. Bu usul bolaning og'zaki va yozma nutqining rivojlanishiga yordam beradi.

O'qish darslarida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozishni, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgantartibda yozishga o'rgatiladi. Xat-savod o'rgatish davrida bolalarni bosma harflar bilan yozma harflarning o'xshash tomonlarini farqlab, bosma harflarni yozma ravishda ko'chirib yozishga ham o'rgatish foydalidir. Chunki ular ko'pincha bosma harflarni aralastirib yozib qo'yadilar. Shunday paytda ular e'tiborini yozuv namunalari jalb ilish, yozuvlarini to'g'ri va chiroyli bo'lishiga erishmoq lozim. Bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish ishlari ham bu davrning asosiy vazifalaridan biridir. Alifbe davrida bolalarga tovush talaffuziga mos keladigan so'zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o'rgatishda so'z tarkibidagi harflarning to'g'ri, aniq yozilishiga e'tibor qaratiladi. Bu davrdagi darslarni maqsadga muvofiq tashkil etish o'quvchilar bilimining kelgusida puxta va pishiq bo'lishiga mustahkam zamin yaratadi.

Maktabda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun kurash barcha ona tili o'qituvchilarining asosiy vazifasi hisoblanadi. O'quvchilar nutqiy kompetensiyalarini o'stirish ularga o'z xalqining adabiy tilini o'rgatish demakdir. Adabiy til esa normalashtirilgan qonun-qoidali tildir. O'quvchilarning nutqini o'stirish bola maktabga birinchi qadam qo'ygan kundan boshlanadi. Nutq ko'nikmalari izchil ravishda olib borilgan amaliy ishlar natijasidagina hosil bo'adi. O'qituvchi o'quvchilarni matni to'g'ri, ifodali, ravon talaffuz etishiga katta e'tibor berishi darkor. Bu ko'nikmaga dastavval nutqning ixcham, sodda ravon va mazmundor bo'lishi kiradi. Shuning uchun har bir Grammatika va imlo darsida nutq o'stirishi o'qituvchining diqqat markazida turishi, o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishi va so'z boyligini kengaytirishi birinchi darajali vazifa qilib qo'yilishi shart.

Savod ta'limida o'quvchining nutq o'stirishida bir turdagi mashg'ulotlar uzoq davom etsa o'quvchilar tez charchab qoladi. Shuni hisobga olib mashg'ulotlarning turi va usullarini o'zgartirib turish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, dastlabki mashg'ulotlar ta'sirchanlik va mo'jizakorlik jihatidan yuksak darajada bo'lishi kerak. Chunki bolalar o'qish va yozishdek aqliy faoliyatga birdaniga kirisha olmaydi. O'quvchilarning nutqini mukammal rivojlantirish uchun o'qituvchi ko'p izlanishi va ko'p bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi lozimdir.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinflar uchun amalda qo'llanilayotgan, respublika ta'lim markazi tomonidan nashr etilgan Milliy o'quv dasturi qo'llanilmoqda. Ushbu o'quv dasturida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha bir qancha ko'rsatma va topshiriqlar berib o'tilgan. Xususan, O'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfdan taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni

idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi. (milliy o'quv dasturi). Milliy o'quv dasturida nutqiy kompetensiyalar quyidagicha berilgan:

Og'zaki nutq malakasi

- o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilgan holda turli nutqiy vaziyatlarda ravon so'zlay olish;

- mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va uni bayon qilish, mavzu doirasidagi fikr va g'oyalarni taqdimot ko'rinishida namoyish qilish;

- munozaralarda ishtirok etish, fikrlarni umumlashtirish va munosabat bildira olish;

- badiiy matni yoddan ifodali aytilish, bunda ohang, ovoz tovlanishlari va to'xtam (pauza) dan o'rinli foydalana olish.

Yozma nutq malakasi:

- o'z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to'g'ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma'lumotni belgilangan hajm talabiga ko'ra yoza olish;

- turli maqsad va har xil o'quvchiga mo'ljallangan matnlarni yoza olish, xususan, ma'lum narsa va hodisa haqida yozma ma'lumot yetkaza olish;

- materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan asoslab yoza olish;

- yozma nutqining ta'sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni o'rinli qo'llay olish;

- matnning izchilligi ta'minlash va saviyasini oshirish uchun so'z va grammatik vositalarni to'g'ri qo'llay olish;

- imlo, uslub va punktuatsion me'yorlarga rioya qilish.

Anglash malakasi. O'qish va tushunish

- matnning uslubini farqlagan holda ravon va ifodali o'qiy olish;

- matnda til qanday qo'llanganini, xususan, har bir so'z, so'z birikmasi va gap shaklining qanday ma'no tashiyotganini, nega aynan shu so'z, birikma yoki gap qo'llanganini, matn tuzilishi va uning tarkibiy qismlarini bog'lovchi vositalarning vazifasini tushuna olish;

Tinglab tushunish

- monologik nutq va suhbatni tinglab tushuna olish;

- jonli nutq va audiomatn mavzusi yuzasidan tilga olingan tafsilotlarni belgilay olish;

- berilgan savollarni tushuna olish va javob bera olish;

- so'roq gap, darak gap, undov gaplar va kinoya ohangidagi farqni tushunish;

- audiomatnda berilgan ma'lumotni turli shaklda, xususan, jadval, chizma, grafik ko'rinishida ifodalay olish;

- audiomatni og'zaki aytilib bera olish va matn ko'rinishida yozib bera olish;

- tinglanganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish;

- dialogik nutq va suhbatda tomonlarning vazifasi, fikri va qarashlarini farqlay olish.

DTSda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili o'qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilangan: "o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan,

kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgaralar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat”.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi sifatida “o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o'quvchida grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat” ekanligi belgilangan.

O'quvchini xalqaro baholash – o'qish savodxonligini baholovchi PIRLS hamda PISA dasturlariga tayyorlash maqsadida o'qib tushunish malakalarini shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar darslik mazmuniga sindiriladi.

Darsliklarni, jumladan, savod o'rgatishning asosi hisoblangan alifbe darslarini takomillashtirish davr talabidir. Takomillashtirish darsning metodik jihatdan qurilishiga, mazmuniga birdek aloqador bo'lib, bunda, avvalo, didaktikaning umumiy hamda savod o'rgatishning xususiy mezonlariga asoslaniladi:

- g'oyaviyligi;
- bayonning ilmiyligi, tushunarililigi;
- ko'rsatmaliligi;
- ongliligi;
- o'quv materiallarining hayot bilan bevosita aloqadorligi.

O'quvchining yoshi, tafakkur yuritish darajasi, o'ziga xos ruhiy xususiyatlarining hisobga olinishi kabi didaktik talablarga savod o'rgatishda e'tibor qaratilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgaralar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun ishlab chiqiladigan o'quv - metodik, didaktik tarqatma materiallar ,metodik qo'llanmalar uzluksiz ta'lim tizimi amaliyotiga joriy qilinadi. Pedagogik texnologiya - o'qitish usuli, ma'lum ma'noda ta'lim - tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui sifatida o'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab metod va vositalarni ishlab chiqish hamda takomillashtirish tizimidir. Boshlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning maqsadi: o'quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish, bahs - munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakllantirishdan iboratdir.

O'qituvchi innovatsion texnologiyadan foydalanganda ham, o'quvchilarga ijodiy - mustaqil ish berganda ham, darsda didaktik o'yinlarni qo'llay olganda ham diqqat e'tiborini faqatgina o'quvchilarning fanga oid bilimlarini rivojlantirishga va shakllantirishga qaratmog'i lozim. Shuning, yuqoridagi usullar faqatgina ta'limiy ahamiyatigina emas, balki tarbiyaviy ta'siri ham katta ekanligini har bir pedagog anglamog'i lozim. Bu usullar o'quvchilarni kelajakda umumiy bilish faoliyatlarini hamda nutqiy fikrlashning kamol topishiga yo'naltiruvchi vosita

bo‘lib xizmat qiladi. Darsda mustaqil ish turlarini, didaktik o‘yinlarni mavzuga oidini tanlay olish ham dars samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlardan foydalanishdan oldin o‘quvchilarga uning nima ekanligini, maqsad va vazifasini o‘qituvchi tushuntirishi kerak. Ana shunda o‘qituvchi dars jarayonida qiynalmaydi va ko‘zlangan maqsadga erishadi.

Ta‘limning yangi mazmuni o‘quvchilarning har tomonlama kamol topishiga, ularni jamiyatda faol bo‘lishiga qaratilgandir. Ayniqsa, bolalarni xat-savodga o‘rgatish, lug‘at boyligini oshirish orqali nutqlarini rivojlantirish va buning natijasida boshqa o‘quv fanlarini o‘zlashtirishga erishish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020
2. Abdullayeva F.N. Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayonlari. Boshlang‘ich ta‘limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. -Buxoro. 2021. -300 bet
3. Omonov H.T., Xattabov M.B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2016. -200 bet.
4. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish (umumta‘lim maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy ko‘rsatma) Samarqand - 2018.
5. Barakayevich Q.S., Baxtiyorova A.S. (2021). Xalqaro dastur talablari asosida innovatsion ta‘lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice, scientific-methodial journal, 1(02), 132-137
6. Azimova. I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir T. Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-qism. (Umumiy o‘rta ta‘lim makatblarining 1-sinfi uchun darslik) Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2021. - 104b.
7. Safarova R., Inoyatova M., G‘ulomov M., Sayfurov D., Malikova D. Alifbe metodik qo‘llanma: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent : Respublika ta‘lim markazi, 2021. - 96 b.
8. Ona tili fanidan milliy o‘quv dasturi (1-sinf uchun). Respublika ta‘lim markazi Toshkent. 2022-2023- o‘quv yili..
9. Abdullayeva Q., Nazarov K., Yo‘ldosheva Sh. Savod o‘rgatish metodikasi. - T.: O‘qituvchi, 1996. - 80 b.
10. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. Ona tili darslari (1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma). - T.: RTM, 1999. - 56 b.
11. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. 1-sinfda o‘qish darslari (metodik qo‘llanma). - T.: 2017. - 40 b.
12. T.G`afforova, Sh. Nurullayeva, Z.Mirzahakimova O‘qish kitobi (1-sinf uchun darslik)- T.: “Sharq” nashriyoti, 2018. - 176 b.
13. . www.unilibrayr.uz
14. www.eduportal.uz